

“Dadasining noni”

Ayol – kashf qilinmagan qit’aga o’xshaydi. Uni qalbiga o’z ko’nglining bayrog’ini qadamoqchi bo’lganlar ko’p bo’lgan. Ming urinishlarga qaramasdan bir siri ochilgan hilqat o’rnida boshqasi paydo bo’laveradi . Hatto oltmish yillik turmushi davomida o’z umr yo’ldoshining ko’nglidan kechayotganlarini tushunib yetolmaydigan bobolarimiz ham bor. Axir ayol yigirma yoshda ham, ellik, yetmish yoshda ham ayol bo’lib qolaveradi. Mehr-muhabbat yosh tanlamaydi. Shunday ekan u hamisha mehrga muxtoj. Albatta, buning uchun turli usullardan foydalanishga to’g’ri keladi. Birgina misol, yurtimizda Samarqand nonidan xushtam va totli ne’mat bo’lmasa kerak? Vaqti kelganda shu ne’matlar ham munosabatlarimizning yaxshilanishuviga sabab bo’ladi. Lekin o’zini cholining mehridan mosuvo his qilayotgan “tadbirkor” qaynona buning ham yo’lini topti. Tandirdan yangi uzilgan shirmoy nonlarni qo’liga olib, hovlida ishlayotgan cholining oldiga bordi. Uzoqdan qaynonasining “odatiy” mug’ombirligini kuzatib turgan kelinlar miyig’ida kulib qo’yishdi. Qaynona esa qo’lidagi nonni quyoshga tutgancha so’z qotdi:

— Qarang dadasi, nonim unchalik yaxshi chiqmadi. Qariyapmiz shekilli?

— Nega unaqa gaplarni gapirasiz, onajonisi? Hatto kelinlaringiz ham sizdan o’tkazib non yopisholmasalar kerak? Ha endi o’zingiz ham yoshim o’tib qoldi deb kamtarlik qilmangda. Axir haliyam yigirma yoshdeksiz-ku.

Ha, qaynonaga ham xuddi shu so’zlar kerak edi. Bu gaplarning bari ko’ngil uchun aytilgan bo’lsa-da undan olam-olam zavq oladi. Har gal bu hodisa takrorlansa va qanday davom etishini yoddan bilsa-da qayta-qayta eshitishdan charchamaydi. Balki shu voqea sabab bu yerlarda “dadsining noni” iborasi paydo bo’lgandir. Bu ham ayol zotiga Momo Havodan azoliy me’ros. Yana kim biladi deysiz.

Maxsuma OQQO’ZIYEVA